


2021- yil yanvar - may oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-may oylarida Samarqand viloyatida jami 2 613,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil yanvar-may oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo'yicha
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar
soni**

2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,4 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,2 mingtani tashkil etib, o'tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 393 taga ko'paygan.

2021- yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmi 6,6 martaga ko'payib (jami qurilishdagi ulushi 58,1 %)ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-may oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 70,8 % ni tashkil etdi.




Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.06.2020- yil	01.06.2021- yil	
Samarqand viloyati	2851	3244	393
Samarqand sh.	1005	1124	119
Kattaqo'rg'on sh.	98	109	11
tumanlar:			
Oqdaryo	117	147	30
Bulung'ur	61	76	15
Jomboy	111	126	15
Ishtixon	139	153	14
Kattaqo'rg'on	122	133	11
Qo'shrabot	63	75	12
Narpay	82	82	0
Payariq	219	272	53
Pastdarg'om	281	318	37
Paxtachi	59	68	9
Samarqand	122	142	20
Nurobod	41	59	18
Urgut	206	227	21
Toyloq	125	133	8



Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.06.2021- yil holatiga




Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (34,6 %), Pastdarg'om (9,8 %) va Payariq (8,4 %) tumanlaridir.

2021- yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **414,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 177,0 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko’rsatkich darajasidan **6,0 %** punktga ko‘paygan.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **35,2 %** i yoki 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **11,7 %ni**), Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **31,7 %i**), Kattaqo‘rg‘on shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,1 %i**), Bulung‘ur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **17,4 %i**), va Pastdarg‘om (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **8,7 %**) tumanlarga to‘g‘ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-may
- 2020- yil yanvar-may


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **66,8 %**i bajarilib, 2020- yilning yanvar-may oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,4 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,4 %** ni tashkil etgan holda **1 746,1 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **17,3 %** ni tashkil etib, **452,5 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **84,4 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **89,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 3,4 martaga koʼpayib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,4 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 523,4** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **126,1 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **96,6 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da

2021- yil yanvar-may



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2021- yil
Yanvar-may

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-may

70,8 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **70,8 %** yoki **1 850,9 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

21,5

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **398,5 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **21,5 %** ni tashkil etdi.

54,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 006,6 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **54,4 %** ni tashkil etdi.

24,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **445,8 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **24,1 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-may oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
Samarqand viloyati	2613,3	110,0	1580,9
Samarqand sh.	992,6	109,0	672,7
Kattaqo‘rg‘on sh.	47,0	112,4	40,5
tumanlar:			
Oqdaryo	178,0	102,4	157,7
Bulung‘ur	97,5	225,9	45,2
Jomboy	105,9	105,0	93,2
Ishtixon	109,5	105,5	94,1
Kattaqo‘rg‘on	61,5	103,2	59,1
Qo‘schrabot	50,6	106,5	45,9
Narpay	63,7	104,8	58,5
Payariq	172,0	108,0	128,5
Pastdarg‘om	173,5	108,7	87,2
Paxtachi	63,8	103,2	44,2
Samarqand	137,1	106,6	84,2
Nurobod	31,3	119,1	21,9
Urgut	180,7	117,2	104,7
Toyloq	148,6	102,6	113,3

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘sghan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2020- yil yanvar-may

8,1




Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

19,2



Fuqarolik obyektlarini
qurish

72,7



Bino va inshootlarni
qurish

2021- yil yanvar-may

2,9



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

58,1



Fuqarolik obyektlarini
qurish

39,0



Bino va inshootlarni
qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **16,9 %** ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **7,5 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **14,8 %** punktga kamayib, **38,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **22,3 %** punktga ko'payib, **44,3 %** ni tashkil etdi.



2021- yil
Yanvar-may

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **15,7 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **20,7 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **84,1 %** (**20,6 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektoring ulushi **0,1 %ni** (**0,1 %** punktga ko'paydi) tashkil etdi.



2021- yil
Yanvar-may


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,6 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,4 %** punktga kamaydi. **96,4 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **12,4 %** punktga ko'paydi.



2021- yil
Yanvar-may

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-may oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.
992,6

1

2

Toyloq
180,7

Pastdarg'om
173,5

3



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod
31,3

1

2

Kattaqo'rg'on sh.
47,0

Qo'shrabot
50,6

3



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 230-45-32

**2021- yil
Yanvar-may**

Samarqand viloyatida qurilish ishlari